



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
B U Y R U Q

2024-yil “25” oktabr

180-son

Toshkent shahri

**Kambag‘allikni qisqartirish
va bandlik vazirligi huzurida
Jamoatchilik kengashini tashkil
etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-124-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" PF-124-son Farmoni ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (keyingi o‘rinlarda – vazirlik) hamda keng jamoatchilik o‘rtasida samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish, vazirlik faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning mustahkam mexanizmlarini rivojlantirish, vazirlik faoliyatining ochiqligi va shaffofligini, fuqarolik institutlari bilan samarali hamkorligini ta‘minlash maqsadida, vazirlik huzuridagi jamoatchilik kengashi (keyingi o‘rinlarda – Jamoatchilik kengashi) yangi tarkibi *1-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilab qo‘yilsinki, jamoatchilik kengashi o‘z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengashi organi hisoblanadi.

4. Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi Nizom *2-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

5. Vazirlikda nodavlat va notijorat tashkilotlari bilan hamkorlik qilish bo‘yicha mas‘ul etib Axborot xizmati boshlig‘i –vazirning matbuot kotibi (J.Qalandarov) belgilansin.

6. Axborot xizmati (J. Qalandarov)ga:

Jamoatchilik kengashlarining faoliyati samaradorligi har yili baholanib, uning natijalarini vazirlik rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarda e‘lon qilinib borilishi ta‘minlansin;

“Yuksalish” harakatining so‘roviga asosan Jamoatchilik kengashlari faoliyatiga doir ma’lumotlarni taqdim etib borilishini ta’minlasin.

7. Moliyaviy resurslarni boshqarish va moliya-iqtisod boshqarmasi (O‘. Choriyev)ga:

Vazir o‘rinbosarlari va vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalarning bildirishnomasiga asosan Jamoatchilik kengashining faol a‘zolari budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantirib borilishini ta’minlasin.

8. Tashkiliy-nazorat boshqarmasi (M.To‘rabekov)ga:

Mazkur buyruqni vazirlik tasarrufidagi barcha hududiy tashkilot va muassasalarga ma’lumot va ijro uchun yetkazish choralarini ko‘rsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2023-yil 25-apreldagi 61-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

12. Mazkur buyruq ijrosi ustidan nazoratni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir

B. Zaxidov